




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL
YANVAR-AVGUST**

2023- yilning yanvar-avgust oylarida, Toshkent viloyatida jami 8299,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,2 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar



2023- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1482

•Bino va inshootlar qurish

363

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1021

•Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 71,5 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,4 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 96,5 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,6 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 68,2 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.09.2023- y.	01.09.2022- y.	
Toshkent viloyati	2866	4007	71,5
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	126	206	61,2
Olmalik	127	213	59,6
Angren	166	281	59,1
Bekobod	117	183	63,9
Ohangaron	100	138	72,5
Chirchiq	285	340	83,8
Yangiyo'l	76	89	85,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	61	96	63,5
Ohangaron	66	83	79,5
Bekobod	89	121	73,6
Bo'stonliq	111	141	78,7
Bo'ka	110	139	79,1
Quyichirchiq	65	87	74,7
Zangiota	211	294	71,8
Yuqori Chirchiq	176	239	73,6
Qibray	294	413	71,2
Parkent	98	116	84,5
Piskent	59	86	68,6
O'rta Chirchiq	144	212	67,9
Chinoz	93	141	66,0
Yangiyo'l	136	204	66,7
Toshkent	156	185	84,3



2023- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,3)



Chirchiq sh. (10,0)



Zangiota (7,4)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	8299,3	1744,7	4476,6	2078,0
shaharlar:				
Nurafshon	420,0	36,0	354,7	29,3
Olmaliq	1229,7	995,1	154,5	80,1
Angren	250,8	6,1	176,5	68,2
Bekobod	294,6	147,8	120,4	26,4
Ohangaron	141,4	0	117,9	23,5
Chirchiq	355,0	95,7	236,0	23,3
Yangiyo'l	208,4	0,1	174,5	33,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	224,0	0	196,5	27,5
Ohangaron	290,5	1,9	220,9	67,7
Bekobod	82,5	0	48,5	34,0
Bo'stonliq	255,5	34,3	80,9	140,3
Bo'ka	213,4	0	171,2	42,2
Quy Chirchiq	473,6	0,5	376,6	96,5
Zangiota	838,7	0,7	529,9	308,1
Yuqori Chirchiq	781,5	102,1	449,0	230,4
Qibray	784,4	292,5	264,2	227,7
Parkent	167,2	0	69,9	97,3
Piskent	131,0	0	110,7	20,3
O'rta Chirchiq	381,2	24,7	240,7	115,8
Chinoz	141,6	0	88,9	52,7
Yangiyo'l	249,5	7,2	110,3	132,0
Toshkent	384,8	0	183,9	200,9



2023- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1744,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 123,4 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yil yanvar-avgust ko'rsatkich darajasidan 0,7 % punktga ko'payib, 21,0 %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,0%ni to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,7% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 95,7 %ni tashkil etgan holda 4476,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

54,0

2023- yil
yanvar-avgust

60,0

2022- yil
yanvar-avgust



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (529,9 so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 11,8%), Yuqori Chirchiq tumani (449,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 10,0%), Quyi Chirchiq tumani (376,6 mlrd. so'm yoki 8,4 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 25,0 %ni tashkil etdi yoki 2078,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 120,6 %ni tashkil etdi.

2023- yil
yanvar-avgust

2078,0
mlrd. so'm


2022- yil
yanvar-avgust

1535,1
mlrd. so'm

25,0%

21,9%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **186,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **8112,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70